BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA RAQAMLI TA’LIM RESURSLARINI YARATISH KOMPETITENTLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Mavlonova Dilnozaxon Shuxratjon qizi
Oliy ta’limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya
Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli ta’lim resurslarini yaratish kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. I.A. Zimnyaya konsepsiyasi asosida omillar uch guruhga — shaxsga oid, ijtimoiy-munosabat hamda faoliyat va bilishga oid omillarga — ajratilib tadqiq etilgan. Ichki omillar (motivatsiya, ijodkorlik, o‘z-o‘zini boshqarish) va tashqi omillar (moddiy-texnik baza, AKT infratuzilmasi, institutsional sharoit) o‘rtasidagi bog’liqlik ochib berilgan.

Kalit so‘zlar*: raqamli kompetentlik, raqamli ta’lim resurslari, bo‘lajak o‘qituvchi, kompetentlikni rivojlantirish omillari, ichki omillar, tashqi omillar, motivatsiya, o‘z-o‘zini boshqarish, AKT infratuzilmasi, oliy ta’lim, pedagogik texnologiya*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya tobora jadal sur’atlar bilan kechmoqda. Sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar va interaktiv platformalarning keng tarqalishi o‘qituvchi kasbiga bo‘lgan talablarni tubdan o‘zgartirdi. Bugungi kunda nafaqat bilim beruvchi, balki sifatli raqamli ta’lim resurslarini mustaqil yarata oladigan o‘qituvchiga ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli ta’lim resurslarini yaratish kompetentligini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Biroq bu yo‘nalishni ilmiy jihatdan to‘g’ri asoslash uchun avvalo uning nazariy poydevorini — “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini — aniq chegaralab olish zarur. Pedagogika fanida bu ikki tushuncha ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llaniladigan bo‘lsa-da, ularning ilmiy mohiyati bir-biridan farq qiladi. Ushbu tushunchalarning tarixi va mazmunini to‘liq anglash raqamli ta’lim resurslarini yaratish kompetentligini rivojlantirish jarayonini nazariy jihatdan asoslash uchun zaruriy shart hisoblanadi.

“Kompetensiya” tushunchasini ilmiy muomalaga birinchi bo‘lib amerikalik psixolog R.W. White (1959)[1] kiritgan bo‘lib, u uni organizmning o‘z muhiti bilan samarali o‘zaro ta’sir qilish qobiliyati sifatida ta’riflagan. Bu ta’rif kompetensiyani tug’ma qobiliyat emas, balki rivojlanib boruvchi dinamik xususiyat sifatida ko‘rish imkonini beradi va keyingi tadqiqotlar uchun metodologik zamin yaratgan.

Keyinchalik OECD ning DeSeCo (Definition and Selection of Competencies) loyihasi doirasida F. Weinert bu tushunchani yanada chuqurlashtirdi.[2] Weinert kompetensiyani faqat kognitiv bilimlar bilan cheklab qo‘ymay, uni motivatsion, axloqiy va ijtimoiy komponentlarning yaxlit majmui sifatida talqin etdi. Bu yondashuv pedagogika fanida kompetensiyaviy ta’lim paradigmasining shakllanishiga turtki bo‘ldi va OECD tomonidan qabul qilingan rasmiy ta’rifda o‘z aksini topdi: kompetensiya — muayyan kontekstda psixososial resurslarni safarbar etish orqali murakkab talablarni qondirish qobiliyatidir.

Raqamli soha uchun esa Yevropa Komissiyasi 2013-yilda DigComp doirasini ishlab chiqdi va 2022-yilda DigComp 2.2 versiyasi sifatida yangiladi. Ushbu doira raqamli kompetentlikni bilim, ko‘nikma va munosabatlarning birligi sifatida ta’riflab, uni ta’lim, mehnat va ijtimoiy hayotda raqamli texnologiyalardan ishonchli, tanqidiy va mas’uliyatli foydalana bilish qobiliyati deb belgilaydi.[3]

Xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida aytish mumkinki, kompetensiya — bu muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, munosabat va motivatsiyaning me’yoriy majmui bo‘lsa, kompetentlik — ana shu majmuaning shaxs tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasi va amalda namoyon bo‘lish sifatidir. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun esa raqamli ta’lim resurslarini yaratish kompetentligi — raqamli vositalarni bilish bilan cheklanmay, ularni pedagogik maqsadlar yo‘lida ijodiy va mustaqil qo‘llay olishni nazarda tutadi.

Mazkur muammoning ilmiy asoslarini o‘rganishda bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. I.A. Zimnyaya kompetentlik shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilgan bo‘lsa, A.N. Leontyev faoliyat nazariyasi orqali motivatsiyaning o‘quv jarayonidagi markaziy o‘rnini asoslab bergan. B. Zimmerman esa o‘z-o‘zini boshqaruvchi o‘rganish modelini ishlab chiqib, mustaqil ta’limda shaxsiy omillarning hal qiluvchi rolini isbotlagan. Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyati umumiy kompetentlik rivojlanishiga bag’ishlangan bo‘lib, raqamli resurs yaratish kompetentligiga xos omillar alohida va yaxlit tizim sifatida o‘rganilmagan.

Shunday ekan, mazkur kompetentlikni maqsadli va samarali shakllantirishdan avval uning rivojlanish mexanizmlarini to‘liq anglash zarur. Ushbu kompetentlikning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishda bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetentlikni rivojlantirish jarayoni o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi — unga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik tadqiqotlarda omil tushunchasi ostida ma’lum bir hodisa yoki jarayonning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi sabab-shart majmui tushuniladi.[4] Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli ta’lim resurslarini yaratish kompetentligini rivojlantirish jarayonini to‘liq tushunish uchun unga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy jihatdan tahlil qilish zarurdir.

I.A. Zimnyaya (2003) kompetentlik shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni uch asosiy guruhga ajratadi.[5] Ushbu konsepsiya asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli ta’lim resurslarini yaratish kompetentligini rivojlantirish omillarini quyidagicha izohlash mumkin.

Birinchi guruh — shaxsga oid omillar. Zimnyaya shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini kompetentlik shakllanishining asosi sifatida ko‘rib chiqadi. Bo‘lajak o‘qituvchi nuqtai nazaridan bu omillar qatoriga raqamli texnologiyalarga bo‘lgan ichki motivatsiya, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish, hamda o‘z raqamli ko‘nikmalarini tanqidiy baholash va tahlil qilish qobiliyati kiradi. Shaxsiy refleksiya va raqamli resurs yaratishga nisbatan ijobiy qadriyatlar tizimining shakllanishi ham ushbu guruh omillari doirasida muhim o‘rin tutadi.

Ikkinchi guruh — ijtimoiy-munosabat omillari. Ushbu guruh kompetentlikning boshqalar bilan o‘zaro ta’sir jarayonida rivojlanishini ta’kidlaydi. Bo‘lajak

o‘qituvchilar uchun bu hamkasblar bilan tajriba almashish, ustoz-shogird munosabati orqali kasbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, shuningdek, raqamli resurslarni o‘quvchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda yaratishga yo‘naltirilgan pedagogik muloqot madaniyatini o‘z ichiga oladi.

Uchinchi guruh — faoliyat va bilishga oid omillar. Bu guruh omillari bevosita ta’lim jarayoni va amaliy faoliyat bilan bog’liq bo‘lib, pedagogika, didaktika va raqamli texnologiyalar sohasidagi nazariy bilimlar, amaliy mashqlar orqali real raqamli resurslar yaratish tajribasi, zamonaviy raqamli vositalar va platformalar bilan ishlash ko‘nikmasi, hamda ta’lim muassasasining texnik imkoniyatlari kabi omillarni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, I.A. Zimnyaya konsepsiyasiga tayanib aytish mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli ta’lim resurslarini yaratish kompetentligini rivojlantirish faqat bilim berish bilan chegaralanmay, balki shaxsiy, ijtimoiy va faoliyatga oid omillarning birgalikdagi ta’siri orqali amalga oshadi

Ichki omillar — bu bevosita talabaning o‘ziga, uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va psixologik holatiga bog’liq bo‘lgan omillar guruhidir. Quyida ushbu guruhning asosiy omillari tahlil qilinadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida ijodkorlik XXI asr uchun eng muhim kompetentliklardan biri sifatida tan olingan. Jahon Iqtisodiy Forumi (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, ijodiy fikrlash ish beruvchilar orasida eng tez o‘sib borayotgan va ikkinchi eng muhim ko‘nikma sifatida baholanmoqda, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlardan ham ustun turib, xodimlarni o‘qitish ustuvorliklarida birinchi o‘rinlardan birini egallaydi.[6]

Motivatsiya raqamli kompetentlikni rivojlantirishda eng muhim ichki omil hisoblanadi. A.N. Leontyev (1975) faoliyat nazariyasida ta’kidlaganidek, insonning har qanday faoliyati, shu jumladan o‘qish ham, avvalo ichki ehtiyoj va motivatsiyadan boshlanadi [7]. Bo‘lajak o‘qituvchida raqamli vositalarga qiziqish bo‘lmasa, hech qanday tashqi sharoit ham kompetentlikni rivojlantira olmaydi.

O‘z-o‘zini boshqarish — talabaning o‘z o‘qish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatidir. B. Zimmerman (2002) ning tadqiqotlarida isbotlanganidek, o‘z-o‘zini boshqara oladigan talabalar mustaqil ta’lim sharoitida ham yuqori natijalar ko‘rsatadi [8]. Raqamli platformalarni mustaqil o‘zlashtirish uchun aynan shu qobiliyat asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Tashqi omillar-talabaning raqamli kompetentligini rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi, ammo uning shaxsidan tashqarida joylashgan omillar guruhidir.

Moddiy-texnik baza omili bu omil eng ko‘zga ko‘rinadigan tashqi omillardan biri hisoblanadi. Kompyuter, zamonaviy planshetlar, tezkor internet aloqasi va raqamli qurilmalar mavjudligi bo‘lajak o‘qituvchining raqamli vositalarni o‘zlashtirish imkoniyatini bevosita belgilaydi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari doirasida oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktab va oliy ta’lim muassasalarida AKT infratuzilmasining yetarli emasligi o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishning asosiy to‘sig’i bo‘lib xizmat qiladi — zarur qurilmalar va internet

mavjud bo‘lmasa, o‘qituvchi texnologik ko‘nikmalarini yangilab borolmaydi (Mutohhari et al., 2021)[9]

Yuqorida amalga oshirilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli ta’lim resurslarini yaratish kompetentligini rivojlantirish ko‘p qirrali va tizimli jarayondir. Ushbu jarayonga ta’sir etuvchi omillarni ikkita asosiy yo‘nalish — ichki va tashqi omillar — doirasida o‘rganish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Ichki omillar — motivatsiya, ijodkorlik va o‘z-o‘zini boshqarish — raqamli kompetentlik rivojlanishining poydevori hisoblanadi. Tashqi sharoit qanchalik qulay bo‘lmasin, talabaning shaxsiy qiziqishi va ichki ehtiyoji bo‘lmasa, kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi.

Tashqi omillar — moddiy-texnik baza, AKT infratuzilmasi va institutsional qo‘llab-quvvatlash — ichki omillarni ro‘yobga chiqarish uchun zarur zamin yaratadi. Bu ikki guruh omil bir-birini to‘ldirgan holdagina samarali natija beradi.

I.A. Zimnyaya konsepsiyasiga ko‘ra, shaxsga oid, ijtimoiy-munosabat hamda faoliyat va bilishga oid omillarning uyg’unligi kompetentlikni yaxlit tizim sifatida rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. White R.W. Motivation reconsidered: The concept of competence // Psychological Review. — 1959. — Vol. 66, №5. — P. 297–333.

2. Weinert F.E. Concept of Competence: A Conceptual Clarification // Rychen D.S., Salganik L.H. (eds.) Defining and Selecting Key Competencies. — Göttingen: Hogrefe & Huber, 2001. — P. 45–65.

3. European Commission. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.

4. Jeļena Zaščerinska, Mihails Zaščerinskis, Natalia Andreeva, Ludmila Aļeksejeva. Factors that Influence the Educational process. https://www.researchgate.net/journal/International-Journal-of-Modern-Education-Forum

5. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetentsii — novaya paradigma rezultata obrazovaniya // Vyssheye obrazovaniye segodnya. — 2003. — №5. — S. 34–42.

6. World Economic Forum. Future of Jobs Report 2023. — Geneva: WEF, 2023. — URL: weforum.org

7. Leontyev A.N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. — Moskva: Politizdat, 1975. — 304 s.

8. Zimmerman B.J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory Into Practice. — 2002. — Vol. 41, №2. — P. 64–70.

9. Mutohhari F. et al. Difficulties in digital competence of teachers: In the education aspect // Proceedings of ICAMER Conference. — 2021.